

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiye Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	



YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI

To'xtabayev Oybek Odilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamizda so'nggi yillarda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyati uchun qulay institutsional va huquqiy shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes subyektlarining davlat siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo, umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash hamda turarjoy xizmatlari ko'rsatish sohalaridagi muammolar o'rganilib, xorijiy tajriba asosida ularni optimallashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, risk-tahlil, xavflarni boshqarish, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract. This article analyzes large-scale reforms implemented in recent years aimed at creating favorable institutional and legal conditions for conducting business activities in the tax and financial sectors, improving the investment climate, and strengthening business confidence in public policy. It also examines sectors of the economy characterized by shadow turnover, including trade, public catering, road transport services, housing construction and renovation, and personal services. Based on international best practices, scientific and practical conclusions and recommendations for their optimization in the national context have been developed.

Key words: tax revenues, risk analysis, risk management, efficiency, digital platform, methods and tools, information and communication technologies, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация. В данной статье проанализированы широкомасштабные реформы, направленные на создание благоприятных институциональных и правовых условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой и финансовой сферах, улучшение инвестиционного климата и укрепление доверия бизнес-сообщества к государственной политике в последние годы. Также исследованы такие сферы экономики, как теневой оборот торговли, общественное питание, автотранспортные перевозки, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг. На основе зарубежного опыта разработаны научно-практические выводы и предложения по их оптимизации в условиях нашей страны.

Ключевые слова: налоговые поступления, риск-анализ, управление рисками, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, информационно-коммуникационные технологии, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Keyingi yillarda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va uning oldini olish maqsadida, boshqa instrumentlar qatori, soliqlardan samarali foydalanishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Soliq nazorati mexanizmlari bosqichma-bosqich erkinlashtirildi, soliq stavkalari, xususan qo'shilgan qiymat solig'i hamda mol-mulk solig'i stavkalari sezilarli darajada kamaytirildi. Shuningdek, insofli soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan rag'batlantiruvchi choralar izchil kuchaytirib borilmoqda.

Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot darajasi hanuz sezilarli ko'rsatkichlarda saqlanib qolmoqda. Mazkur holat boshqa omillar bilan bir qatorda soliq instrumentlaridan yanada samarali va tizimli foydalanishni taqozo etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishda moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish yo'llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

Mahkamov (2014) fikricha, davlat tomonidan belgilangan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik, foyda (daromad)ni yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirish yoxud kamaytirib ko'rsatish holatlarining oldini olish maqsadida, shuningdek soliq to'lovchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini takomillashtirish borasida mamlakatimizda amal qilib kelayotgan qator qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish hamda qayta ko'rib chiqish orqali mavjud muammolarni huquqiy mexanizmlar asosida hal etish zarur. Bu esa, o'z navbatida, mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Muallif ta'kidlashicha, soliqdan qochish ko'pincha soliq to'lovchining iqtisodiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lsa-da, u iqtisodiy jarayonlar orqali kengroq ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'lib, ayrim hollarda siyosiy masalalar doirasiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bu borada Bavariya moliya vaziri Guver: "Germaniyada soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash istagi tug'ilish istagidan kuchliroqdir", deya ta'kidlab, soliqdan bo'yin tovlash hodisasining ijtimoiy-siyosiy ildizlariga e'tibor qaratgan (Kottke, 1998).

Abdullina (2016)ning fikricha, soliqdan qochish holatlarini aniqlash jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ayrim murakkabliklar kuzatiladi. Xususan, buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishdagi qiyinchiliklar, qisqa muddat faoliyat yuritib tugatiladigan korxonalarni monitoring qilishda yetarli tajriba va malakaning cheklanganligi, fuqarolik va iqtisodiy-huquqiy hujjatlarni o'zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilish murakkabligi, shuningdek ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish zarurati soliqdan qochish jarayonlarini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Vachugov (2019) soliqdan qochish jarayonini yashirin iqtisodiyotning tarkibiy bo'g'ini sifatida talqin qilib, "soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot" tushunchasini izohlaydi. Uning fikricha, "soliq to'lashdan bo'yin tovlash yashirin iqtisodiyotning bir qismi bo'lib, ushbu jarayonni tashkil etish va unga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yashirin tuzilmalar faoliyati 'soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot' atamasini qo'llash imkonini beradi". Muallif mazkur tushunchani soliq to'lovchilarning o'zlari hamda soliqdan bo'yin tovlashni tashkil etishga xizmat qiluvchi soya tuzilmalar faoliyati majmui sifatida ta'riflaydi.

Rayzberg (1997) yashirin iqtisodiyotni "oshkora e'lon qilinmaydigan, ishtirokchilari tomonidan yashiriladigan, davlat va jamiyat nazoratidan chetda qoladigan hamda rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar" sifatida baholaydi.

Yefimichev (2000) esa, "soliq to'lashdan bo'yin tovlash — qonunda belgilangan soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarni qasddan bajarmaslik, ya'ni harakatsizlik shaklida namoyon bo'ladigan holat", deb ta'riflaydi.

Nudel (2007) soliq to'lashdan bo'yin tovlashni ijtimoiy jihatdan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan hodisa sifatida izohlab, uni jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliqqa tortish sohasida qonunda belgilangan soliqlarni va (yoki) yig'implarni to'liq yoki qisman to'lamaslikka qaratilgan harakati yoki harakatsizligi sifatida tushuntiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yashirin iqtisodiyotni baholash muayyan mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlarga tayanadi. Ushbu baholash uchun qo'llaniladigan usullar orasida soliq tizimi vositalari bilan bog'liq ikkita asosiy jihat mavjudligini e'tirof etish muhimdir. Ya'ni, soliq instrumentlari bir tomondan yashirin iqtisodiyotning hajmi va darajasini aniqlashga xizmat qilsa, boshqa tomondan uning oldini olish hamda ko'lamini qisqartirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ular qatoriga soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliq qarzdorligi, soliq nazorati, soliq xizmati organlarining boshqa moliyaviy va vakolatli organlar bilan yashirin iqtisodiyotning oldini olish bo'yicha o'zaro integratsion faoliyati, shuningdek, soliq organlari tomonidan amaliyotda qo'llaniladigan turli usullar va dasturiy mahsulotlar kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimida yashirin iqtisodiyotni baholash va aniqlashda bir qator usullardan foydalanilmoqda. Shu nuqtai nazardan ayrim kategoriyalar o'rtasidagi farqlarni aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

- Kuzatilmaydigan iqtisodiyot — doimiy statistik kuzatuvlarda to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek statistik ko'rsatkichlarda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari.
- Norasmiy iqtisodiyot — uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmasdan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyati.
- Yashirin iqtisodiyot — qonun bilan man etilmagan, biroq soliqqa tortish va amaldagi qonun hujjatlari talablariga to'liq rioya etmaslik maqsadida davlat organlaridan berkitiladigan iqtisodiy faoliyat.



• Noqonuniy iqtisodiyot — qonun bilan taqiqlangan yoki vakolatga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan taqdirda jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari.

Mazkur tasnif yashirin iqtisodiyotning tarkibiy jihatlarini aniqlash hamda unga qarshi samarali moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot norasmiy, yashirin va noqonuniy faoliyat turlari bo'yicha guruhlariga ajratilgan holda baholanadi.

Norasmiy iqtisodiy faoliyat ro'yxatdan o'tmagan holda turli xil tadbirkorlik va ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o'z ichiga oladi. Jismoniy shaxslarning norasmiy faoliyati ishlab chiqarish maqsadidan kelib chiqqan holda ikki guruhga ajratilib baholanadi:

- jismoniy shaxslarning o'zini ish va daromad bilan ta'minlash uchun sotish maqsadida (bozor uchun) tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyati;

- uy xo'jaliklarining o'z ehtiyojlari (yakuniy foydalanish) uchun ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyati.

Jismoniy shaxslarning sotish maqsadida (bozor uchun) amalga oshiradigan ishlab chiqarish faoliyati, odatda, quyi darajada tashkil etiladi va kichik hajmga ega bo'ladi. Shu sababli ularda mehnat va kapital xarajatlari aniq farqlash imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin. Mehnat munosabatlari mavjud bo'lgan hollarda ham ular ko'proq og'zaki kelishuvlar, qarindoshlik aloqalari hamda ish vaqti va tartibining rasmiy belgilanmaganligiga asoslanadi.

Uy xo'jaliklarining o'z ehtiyojlari (yakuniy foydalanishi) uchun ishlab chiqarishi qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik) hamda qayta ishlash sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish, o'z uy-joylarini qurish ishlari, shuningdek, o'z uyida yashash bilan bog'liq shartli xizmatlar (shartli renta)ni o'z ichiga oladi.

Yashirin iqtisodiy faoliyat davlat boshqaruvi organlarida ro'yxatdan o'tgan, biroq hisobotlarida faoliyatini (daromadlarini va boshqa ko'rsatkichlarini) to'liq yoki qisman aks ettirmaydigan korxonalar va tashkilotlar (yuridik shaxslar) faoliyatini, shuningdek, davlat boshqaruvi organlarida ro'yxatdan o'tmagan hamda hisobot taqdim etmaydigan, ishlab chiqarish jarayonlari nisbatan yuqori darajada tashkil etilgan va yirikroq ko'lamlarda faoliyat yuritadigan korxonalar (jismoniy shaxslar) faoliyatini qamrab oladi.

Noqonuniy iqtisodiy faoliyat qonun bilan taqiqlangan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va saqlash, shuningdek, qonun bilan ruxsat etilgan, ammo tegishli ruxsatnomasiz amalga oshiriladigan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ularga qurol-yarog' savdosi, giyohvand moddalarni yetishtirish va sotish, kontrabanda, maxsus ruxsatnomasiz amalga oshiriladigan ayrim ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati (masalan, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish, ayrim tibbiy xizmatlar, brakonerlik) va boshqalar kiradi. Odatda, noqonuniy faoliyat ko'lamining iqtisodiyotdagi talab va taklif darajasiga, shuningdek, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar — iqtisodiy o'sish, bandlik va inflyatsiyaga ta'siri cheklangan darajada bo'lishi mumkin. Shu sababli xalqaro tajribadan kelib chiqib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishda noqonuniy iqtisodiy faoliyatni alohida qamrab olish zarurati mavjud emas deb hisoblanadi va mazkur Uslubiy nizomda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha noqonuniy iqtisodiy faoliyatni statistik baholash nazarda tutilmagan.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bevosita va bilvosita usullar orqali amalga oshiriladi.

Bevosita usullar tanlanma kuzatuvlar o'tkazish (uy xo'jaliklari kuzatuvlari, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha jismoniy shaxslar kuzatuvlari, korxonalar faoliyatining maxsus kuzatuvlari, savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarini kuzatish va boshqalar) yoki ma'muriy ma'lumotlardan (soliq va moliyaviy tekshiruvlar natijalari, ro'yxatga olish va litsenziyalar berish bo'yicha ma'lumotlar, ma'muriy registrlar va boshqalar) foydalanishga asoslanadi.

Bilvosita usullar baholanayotgan tarmoq faoliyatini ifodalovchi bilvosita ma'lumotlar asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish va turli iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishga asoslanadi. Bilvosita usullarga mehnat sarfi bo'yicha bandlik ko'rsatkichlari usuli, naqd pul massasi asosidagi monetar usul, ishlab chiqarish omillari bo'yicha resurslar usuli, tovarlarni ishlab chiqarilishidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan harakati asosidagi tovarlar oqimi usuli va boshqa yondashuvlarni kiritish mumkin.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini aniqlashda iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari, mavjud axborot manbalari hamda boshqa ta'sir ko'rsatuvchi omillar inobatga olinib, ma'lum bir usul tanlanadi. Shu bilan birga, bevosita va bilvosita usullardan kompleks tarzda, ya'ni birgalikda foydalanish ham mumkin.

Norasmiy iqtisodiyot hajmini hisoblashda axborot manbai sifatida tarmoqlar statistikasi doirasida shakllantiriladigan norasmiy sektorda ishlab chiqarish bo'yicha jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlari hamda uy xo'jaliklari kuzatuvlari ma'lumotlari qo'llaniladi. Zarur hollarda tanlanma qamrovini kengaytirgan holda qo'shimcha maxsus kuzatuvlar ham o'tkazilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni baholashda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun maxsus tanlanma kuzatuvlar o'tkaziladi:

- qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlari;
- chorva mollari va parrandalar bosh soni;



• natura ko'rinishida dehqonchilik (donli ekinlar, sabzavotlar, kartoshka, poliz ekinlari, meva va rezavorlar va boshqalar), chorvachilik (go'sht, sut, tuxum va boshqalar), baliq va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmlari.

Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'liq yoki qisman sotish uchun, shuningdek, o'z iste'moli uchun ishlab chiqaruvchi uy xo'jaliklari qamrab olinadi. Tanlanma to'plamni shakllantirishda bosh to'plam sifatida faoliyat yuritayotgan dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari sonidan foydalaniladi. Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bo'yicha bosh va tanlanma to'plamni shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha faoliyat yuritayotgan barcha dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari soni ko'rsatilgan holda hududlar kesimida ro'yxat (bosh to'plam) shakllantiriladi. Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari sonini aniqlashda hisobot yilining 1-yanvar holatiga ko'ra 1-DX shakli — "Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot" davlat statistika kuzatuv ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Hududlarda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari sonining farqlanishini inobatga olib, tanlanma to'plamni shakllantirishda tanlash foizi tegishli hududdagi xo'jaliklar sonidan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda barcha hududlarda kuzatuvga jalb etilgan dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari sonining o'zaro muvozanati ta'minlanadi.

Masalan, hududda jami 8544 ta dehqon xo'jaligi (bosh to'plam) mavjud bo'lib, mazkur hududda kuzatuv o'tkazish uchun tanlash foizi 1,1 foizni tashkil etsa, kuzatuv uchun hudud bo'yicha 94 ta xo'jalik ($8544 / 100 \times 1,1 = 94$) tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda birinchi bosqichda aniqlangan xo'jaliklar sonidan kelib chiqib, hudud bo'yicha dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari tanlab olinadi hamda ularning ro'yxati tuziladi. To'liqroq qamrov va ma'lumotlarning reprezentativligini ta'minlash maqsadida kuzatiladigan dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bir nechta mahalla fuqarolar yig'inlari hududidan tanlab olinadi.

So'rovlar va kuzatuvlar tanlab olingan barcha dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini to'liq qamrab olgan holda, ularning yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmaganligidan qat'i nazar, barcha hududlar kesimida o'tkaziladi.

Tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish har bir hudud va so'rovnomaning har bir ko'rsatkichi bo'yicha tanlov foizidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Masalan, hudud bo'yicha dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining umumiy soni 8544 tani tashkil etadi. Shundan kuzatuv uchun 1,1 foiz, ya'ni 94 ta xo'jalik tanlab olingan. Kuzatuv o'tkazilgan 94 ta xo'jalik bo'yicha jami 60 sentner don ekinlari hosili olingan (q).

Don ekinlari yalpi hosili bo'yicha tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$Q = (q \times 100 \%) / w$$

bu yerda:

Q — bosh to'plamdagi don ekinlari yalpi hosili (sentner);

q — tanlanma to'plamdagi don ekinlari hosili (sentner);

w — tanlanma to'plam qamrovi (bosh to'plamdagi ulushi), foizda.

Hisob-kitob:

$$Q = (60 \times 100 \%) / 1,1 \% = 5454,5 \text{ sentner.}$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko'ra, hudud bo'yicha bosh to'plamdagi don ekinlarining yalpi hosili 5454,5 sentnerni tashkil etadi.

Xuddi shu tartibda so'rovnomaning boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha ham kuzatuv ma'lumotlari bosh to'plamga tarqatiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari kesimida natura ko'rinishidagi ma'lumotlar narxlar statistikasi ma'lumotlari asosida qiymat ko'rinishiga o'tkaziladi.

Sanoat tarmog'i bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyat uy xo'jaliklarining sotish yoki o'z iste'moli uchun sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishini o'z ichiga oladi. Uy xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi uy xo'jaliklari budjeti kuzatuvlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Uy xo'jaliklarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_x = (\sum V_i / K_{kux}) \times K_{ux} \times N_i,$$

bu yerda:

V_x — uy xo'jaliklarining sanoat ishlab chiqarish hajmi;

V_i — i-tovarni qayta ishlashdan olingan mahsulot (natura ko'rinishida);

K_{kux} — kuzatilgan uy xo'jaliklari soni;

K_{ux} — hududdagi barcha uy xo'jaliklari soni;

N_i — i-mahsulot birligi uchun xarid narxi (bozor narxlarida baholanadi).



Savdo sohasi bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva mollari va parrandalar, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tashqari boshqa oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari savdosi bilan tegishli ruxsatnomasiz shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini qamrab oladi.

Savdo sohasi bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni statistik baholashda quyidagi ma'lumotlar manbalaridan foydalaniladi:

- 1-savdo (JSh) (choraklik) — "Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni tanlanma kuzatuv so'rovnoma" ma'lumotlari;
- 1-bozor (oylik) — "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarni tanlanma kuzatuv so'rovnoma";
- 1-bozor (chorva) (oylik) — "Chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslarni tanlanma kuzatuv so'rovnoma".

Tanlanma kuzatuvda dehqon bozorlarida kamida 50 nafar, chorva bozorlarida esa kamida 30 nafar savdo faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qamrab olinadi. Kuzatuv natijalarini bosh to'plamga tarqatish dehqon bozorlaridagi rastalar soni hamda chorva bozorlarida jami olib kirilgan chorva mollari bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Kuzatuv uchun tanlangan dehqon bozorlaridagi savdo rastalari soni (har chorakda aniqlashtirib boriladi) va chorva bozorlariga olib kirilgan chorva mollari bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay bozor ma'muriyati ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Dehqon va chorva bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi quyidagi formula asosida baholanadi:

$$t^g = q_i \times p_i \times m_i \times d^g$$

bu yerda:

t^g — dehqon va chorva bozorlarida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi;

q_i — i-tovar bo'yicha bir savdo nuqtasiga to'g'ri keladigan savdo hajmi;

p_i — kuzatuv natijasida shakllangan i-tovar narxi;

m_i — i-tovar bo'yicha savdo nuqtalari soni;

d^g — g-bozorning savdo kunlari soni;

g — bozor;

i — tovar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar (ruxsatnoma hujjatiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan jismoniy shaxslar) tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi choraklik tanlanma kuzatuvlar asosida baholanadi. Bunda soliq organlarida jami ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini to'xtatmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning kamida 10 foizi o'rganiladi.

Ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar soni kuzatuv jarayonida aniqlangan ruxsatnomaga ega bo'lmagan va ega bo'lgan shaxslar o'rtasidagi nisbatni soliq organlarida ro'yxatdan o'tgan hamda faoliyatini to'xtatmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar umumiy soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi quyidagi formula asosida baholanadi:

$$Q_i = k_i \times q_i, i = 1, 2, \dots, n,$$

bu yerda:

k_i — i-tovar bo'yicha hisobot davrida ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar soni;

q_i — tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslarning i-tovar bo'yicha hisobot davridagi tovar aylanmasi hajmi.

Xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiy faoliyat belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi hamda iste'molchilarga bozor xizmatlari (yuk va yo'lovchi tashish, repetitorlik va boshqa ta'lim xizmatlari, tibbiy xizmatlar, turar va noturar joylarni ijaraga berish, maishiy xizmatlar va boshqalar) ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiy faoliyatni statistik baholashda quyidagi ma'lumotlar manbalaridan foydalaniladi:

- 4-xizmat (JSh) (choraklik) — "Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar bo'yicha so'rovnoma" ma'lumotlari;
- 4-tr (YAT) (choraklik) — "Shaxsiy avtotransport egalari tashish faoliyati to'g'risida so'rovnoma" ma'lumotlari.

Kuzatuvlar bozorlar, bozor hududlari, mahallalar, guzarlar, ish va yashash joylari, uy xo'jaliklari hamda maxsus mo'ljallangan joylar va boshqa obyektlarda amalga oshiriladi.

Ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lmagan (ro'yxatdan o'tmagan) jismoniy shaxslar bo'yicha xizmatlar hajmini baholash quyidagi formulalar orqali amalga oshiriladi:

$$V_n = V_{n1} \times L_{nS},$$



$$L_{js} = (L_{rs} / W_{ru}) \times 100 \%,$$

$$L_{ns} = L_{js} - L_{rs},$$

bu yerda:

V_n — ro'yxatdan o'tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{n1} — kuzatuv natijalariga ko'ra ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lmagan bitta tadbirkorga to'g'ri keladigan o'rtacha xizmatlar hajmi;

L_{ns} — ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar soni;

L_{js} — hisobot davrida xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jami jismoniy shaxslar soni;

L_{rs} — soliq organlari ma'lumotlariga ko'ra ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar soni;

W_{ru} — kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra hisobot davrida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslarning ulushi.

Tanlanma kuzatuvlar asosida olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi va xolisligini ta'minlash maqsadida ular boshqa statistik ma'lumotlar, jumladan, uy xo'jaliklari kuzatuvlari, tarmoqlar statistikasi kuzatuvlari hamda boshqa manbalar ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Norasmiy iqtisodiy faoliyat bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmi ishlab chiqarish va oraliq iste'mol o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Norasmiy iqtisodiy faoliyat bo'yicha ishlab chiqarish hajmi yuqorida keltirilgan tarmoqlar kesimida tanlanma kuzatuvlar natijalari asosida hisoblanadi. Oraliq iste'mol hajmi esa ishlab chiqarish hajmini ekspert baholangan oraliq iste'mol koeffitsientiga (ya'ni oraliq iste'molning ishlab chiqarishdagi ulushi) ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Norasmiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarishda oraliq iste'mol ulushi yillik milliy hisoblarda tegishli faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun hisoblangan oraliq iste'mol ulushiga teng deb qabul qilinadi.

Yashirin iqtisodiy faoliyat hajmini baholashda yuridik shaxslar faoliyati bo'yicha maxsus kuzatuvlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda maxsus tanlanma kuzatuvlar natijalari mavjud rasmiy statistika kuzatuvlari ma'lumotlari bilan taqqoslanadi, tahlil qilinadi hamda yuridik shaxslar faoliyatini ifodalovchi bilvosita ma'lumotlar asosida hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida yashirin iqtisodiyotni o'rganish maqsadida o'tkaziladigan maxsus tanlanma kuzatuvlar iqtisodiy faoliyat turidan kelib chiqib, kuzatuv obyektlari, maqsadlari va so'rovnomalar tarkibi jihatidan o'zaro farqlanadi.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni baholashda fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari tasarrufidagi qishloq xo'jaligi ekinlari, ko'p yillik daraxtlar maydonlari, chorva mollari va parrandalar bosh soni, baliq ovlash, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini aniqlash maqsadida maxsus tanlanma kuzatuvlar o'tkaziladi.

Tanlanma to'plamni shakllantirish uchun asos (bosh to'plam) sifatida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari sonidan foydalaniladi. Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining tanlanma to'plamini shakllantirish uchun bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan barcha fermer xo'jaliklari hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari (IFUT-2) kesimida ajratilgan holda hududlar ro'yxati shakllantiriladi. Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari sonini aniqlashda hisobot yilining 1-yanvar holatiga ko'ra 1-FX — "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-QX — "Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-KBQX — "Kichik korxona va mikrofirmalarning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" shakllari ma'lumotlaridan hamda Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Hududlarda fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari sonining farqlanishini inobatga olib, tanlanma to'plamni shakllantirishda tanlash foizi tegishli hududdagi ularning soniga mutanosib ravishda aniqlanadi. Bunda barcha hududlarda kuzatuvga jalb etiladigan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari sonini bir xil foizda tanlash tamoyili ta'minlanadi.

Masalan, hududda jami 662 ta fermer xo'jaligi (bosh to'plam) mavjud bo'lib, mazkur hududda bir davrda kuzatuv o'tkazish uchun tanlash foizi 8,0 foizni tashkil etsa, kuzatuv o'tkazish uchun hudud bo'yicha 53 ta xo'jalik ($662 / 100 \times 8,0 = 53$) tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda birinchi bosqichda hisoblangan xo'jalik va korxonalar sonidan kelib chiqib, har bir hudud bo'yicha mazkur Uslubiy nizomning 8-bandida belgilangan tamoyillarga muvofiq fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari tarkibi (tanlanma to'plam) shakllantiriladi. Kuzatuvlar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha subyektlarni tanlashda hudud kesimida ularning umumiy soniga nisbatan aniqlangan tanlash foizidan foydalaniladi.

Kuzatiladigan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tanlanadi hamda ular mazkur subyektlarning iqtisodiy faoliyat turlarini to'liq qamrab olishni ta'minlashi zarur.



Uchinchi bosqichda ikkinchi bosqichda hisoblangan xo'jalik va korxonalar soniga asosan kuzatuv o'tkazish uchun tanlab olingan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining MHOBT, KTUT, STIR, xo'jalik va korxona nomi hamda IFUT-2 tasnif kodlari ko'rsatilgan holda ro'yxat tuziladi.

Axborotlarni yig'ish kuzatuv uchun tanlab olingan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini to'liq qamrab olgan holda barcha hududlar kesimida amalga oshiriladi. Tanlanma kuzatuv ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish har bir hudud, IFUT-2 kesimi, shuningdek, so'rovnomaning har bir ko'rsatkichi bo'yicha tanlov foiziga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Masalan, don ekinlari misolida hudud bo'yicha fermer xo'jaliklarining umumiy soni 662 tani tashkil etadi. Shundan kuzatuv uchun 8,0 foiz, ya'ni 53 ta xo'jalik tanlab olingan. Kuzatuv o'tkazilgan 53 ta xo'jalik bo'yicha jami 265 sentner don ekinlari hosili olingan (q).

Don ekinlari yalpi hosili bo'yicha tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga (G) tarqatish quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$Q = (q \times 100 \%) / w,$$

bu yerda:

Q — bosh to'plamdagi don ekinlari yalpi hosilining yig'indisi (sentner);

q — tanlanma to'plamdagi don ekinlari yalpi hosili (sentner);

w — bosh to'plamdan tanlanma to'plamdagi xo'jaliklarni tanlash foizi.

Hisob-kitob:

$$Q = (265 \times 100 \%) / 8,0 \% = 3312,5 \text{ sentner.}$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko'ra, hudud bo'yicha bosh to'plamdagi don ekinlarining yalpi hosili 3312,5 sentnerni tashkil etadi.

Xuddi shu tartibda so'rovnomaning boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha ham kuzatuv ma'lumotlari bosh to'plamga tarqatiladi.

Kuzatuv natijalari asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar bosh to'plamga keltirilib, joylardagi fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Aniqlangan tafovut hisobot taqdim etuvchi subyektlar tomonidan to'liq aks ettirilmagan hajm sifatida baholanadi va uning ulushi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Y_i = (Q_i / H_i) \times 100 \%,$$

bu yerda:

Y_i — i-mahsulot turi kesimida hisobot taqdim etgan subyektlar tomonidan to'liq aks ettirilmagan hajm ulushi;

Q_i — i-mahsulot turi bo'yicha kuzatuv natijalarining bosh to'plamga keltirilgan hajmi;

H_i — i-mahsulot turi bo'yicha subyektlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlardagi ishlab chiqarish hajmi.

Mazkur formula orqali ikki ma'lumot o'rtasidagi nisbiy farq aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda riskka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli soliq nazorati vositalarini rivojlantirish hamda soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish orqali soliq nazoratining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. 2021 Абдуллина А.Р. (2016) Представители как субъекты уклонения от уплаты налогов с организационной // Научная перспектива. № 10. С. 37-38.
3. Вачуров И.В. (2019) Уклонение от уплаты налогов, как составляющая теневой экономики: рост или сокращение? // Налоги и налогообложение. — № 6. — С. 42.
4. Ефимичев П.С. (2000) Предмет и пределы доказывания по уголовным делам о налоговых преступлениях // Журнал Российского права. — №9.
5. Майбутова И.А., Киреев А.П., Иванова Ю.Б. (2013) Уклонение от уплаты налогов. Проблемы и решения: монография для магистров, обучающихся по программам направления «Финансы и кредит» / И.А. Майбутова [и др.]; под ред. И.А. Майбутова, А.П. Киреева, Ю.Б. Иванова. — М.: ЮНИТИДАНА, — с. 383.
6. Mahkamov O. (2014) O'zbekiston qonunchiligi tahlili. yil, № 3-4.
7. Нудель С.Л. (2007) Вопросы квалификации уголовно-наказуемого уклонения от уплаты налогов и (или) сборов. Научные ведомости № 2(33).
8. Райзберг Б.А. (1997) Современный экономический словарь / Б. А. Райзберг, Л. Ш. Лозовский, Е. Б. Стародубцева. — М.: ИНФРА-М, — 496
9. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>